

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA MAQOL JANRINING
NASRDAGI O‘RNI VA TA‘SIR DOIRASI

Abdumurod Tilavov

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti*

Otaboyeva Dilnoza

Urganch RANCH texnologiya universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, badiiy asarda folklor an‘analarining o‘ziga xos janr xususiyatlari Tog‘ay Murod ijodi misolida o‘rganildi. Shuningdek maqol janrining nasrdagi o‘rni va ta‘sir doirasi, o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Maqollar ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida, yetakchi pafos turi sifatida adabiyot va san‘atda o‘z o‘rniga ega. Shu boisdan maqollarning badiiy asarlardagi ta‘sir doirasi ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: maqol janri, folklor an‘analari, milliylik, xalq og‘zaki ijodi, paremiya, ijodkor mahorati.

Ma‘lumki xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri maqol hisoblanadi. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb ham ataladi. Maqol hajman ixcham bo‘lsa ham fikr va mazmun jihatdan keng qamrovga ega. Shu jihatdan maqollar ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida, yetakchi pafos turi sifatida adabiyot va san‘atda o‘z o‘rniga ega. Maqol xalqning ko‘p asrlik kuzatishlari, turmush tajribalari zahirida yuzaga kelgan fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asar. Uni “O‘talar so‘zi” ham deyilar. Deyarli barcha asarlarda maqollarni uchratamiz, asardagi maqollar bir tomondan, xalqning o‘sha zamondagi turmushi, obrazlarning ruhiyatini ochib berishga yordam bersa, ikkinchi tomondan yozuvchining xalq ijodidan baxramand bo‘lishdagi badiiy mahoratini, bu sohada ham ustoz san‘atkor ekanligini namoyish qiladi. Tog‘ay Murodning har bir asari folklorizm namunalariga juda boy, ularda maqol, matal, naqillar, xalq qo‘shiqlardan tashqari olqishlar va qarg‘ishlarni ham uchratamiz. Ular asar mohiyatiga singib, poetik xulosalar, falsafiy umumlashmalar hosil qilgan. Badiiy asarlarda maqollar badiiylikni oshirish, til ravonligini taminlash uchun ham keng foydalaniladi. Shu boisdan xalq hayotida maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqol badiiy obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘z bo‘lgani bois undan badiiy asarlarda keng foydalanishadi. Xalqning ijtimoiy, madaniy, maishiy, hayotiy tajribasi umumlashgan holda berilishi bilan ham ajralib turadi. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, kundalik kuzatishlar va xulosalar natijasida yuzaga keladi. Ularda har bir so‘zning xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘lanish doirasiga ko‘ra ma‘nosi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning

uchun ham maqollardagi har bir soʻzga alohida eʼtibor berish kerak. Maqollarda shunday soʻzlar borki tarixan butunlay boshqa maʼno ifodalaydi. Masalan, mehnat soʻzining azob uqubat, omadsizlik, baxtsizlik kabi maʼnolar ifodalashi koʻroq maqollarda ifodalanadi. T.Mirzayevning “Oʻzbek xalq maqollari” kitobida keltirilgan “Mehnat ham egiz-egiz, davlat ham egiz-egiz” [1.7] maqoli bunga misol boʻla oladi. Bu maqol Togʻay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asarida ham keltiriladi.

- Toʻdaga kirolmadim, kirsam, uloqni ololmadim. Bordi-yu olsam, birov yo, qoʻlimdan yulib ketdi, yo yerga tushib ketdi. Taqimimdagi uloqni-da oldirib qoʻydim.

- Birodarlar, davlat-da egiz-egiz, mehnat-da egiz-egiz! [2.22]

Ushbu maqolda mehnat soʻzining maʼno doirasi kengaygan. Mehnat soʻzi azob, uqubat, omadsizlik maʼnosida qoʻllangan. Yozuvchi asarda mehnat soʻzining tarixiy maʼnosiga urgʻu beradi va asarda oʻziga xos oʻxshatish orqali tasvirlaydi.

Maqol janrini chuqurroq oʻrganar ekanmiz unda koʻproq moddiylikdan koʻra maʼnaviy ehtiyoj ustunlik qilganini guvohi boʻlamiz. Masalan, “Otamdan qolgan dalalar” asarida “Olisning shoʻrvasidan yaqinning yovgʻoni yaxshi”, “Birovning moli mol boʻlmaydi” kabi maqollarni uchratamiz. Bu maqollarda aynan moddiylikdan koʻra maʼnaviy ehtiyoj ustunlik qiladi. Xalq maqollari qaysi mavzuda boʻlmasin, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yurutilmasin tanlangan muammolar ijtimoiy munosabatlar atroficha oʻrganiladi. Maqollar koʻp maʼnolilik, majoziy maʼnoga boyligi bilan ham ajralib turadi. Maqollar oʻz va va koʻchma maʼnoga ega boʻlgani bilan ham diqqatga sazovordir. Maqollarda yengil yumor, oʻrinli kesatiq, kuchli tasdiq, xalqimiz tarixini mukammal ochib bera oladigan mukammal haqiqatlar, biror bir ishni amalga oshirishdagi tasdiq va inkor maʼnolarni anglash uchun ham ishlatiladi. Bu jihatlar maqollarning asrlar davomida ogʻizdan ogʻizga oʻtib yashashini taminlagan omillardir. Maqollarning badiiy mukammalligi esa ularning hayotiyliigi, umrboqiyiligini taminlaydi.

“Yulduzlar mangu yonadi” asarida kurash jarayonida bir qancha maqol va matallarni uchratamiz.

Menga qara, zoʻr-zoʻrlarini bir yerga yigʻ Shoʻrchiliklar kepti... Tushundingmi? Oʻzing bosh boʻl. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, yetti oʻlchab bir kes. Shoʻrchiliklarning oʻngi chapiga eʼtibor qil.[3.13] Ushbu maqolda kurashda yoinki har qanday ishda shoshqaloqlik yaramasligi yetti oʻlchab bir kesish kerakligi koʻpni koʻrgan Boʻri polvon tilidan berilmoqda.

Bir-ikkita dadilrogʻi bilan bizning Tilovberdini davra oxiriga asra. Yoʻgʻon choʻzilib, ingichka uzilganda kunimizga yaraydi.[3.27]

Asarda yana “Itidan boʻlgan qurbonlikka yaramas”, “Koʻrpanga qarab oyoq uzat”, “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi”, “Egachim elakli boʻldi, elagi tilakli boʻldi”, “Rang koʻr, hol soʻr”, “Tanacha koʻzini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi”, “Alp-otadan, zot – onadan” kabi bir qancha maqol, matal va naqlarni uchratamiz. “Otamdan

qolgan dalalar” asarda ham mehnat va uning samarasi haqidagi poetik fikrlarni xalq maqollari uslubida ravon ifodalagan. Shu boisdan asarning ko‘pchilik boblari maqol bilan boshlanadi. Bu esa voqealarga ochqich vazifasini ham bajargan. Bundan tashqari folklor namunalari asarning badiiy estetik g‘oyasini ochishga ham katta xizmat qilgan. Adibning ilk romani “Otamdan qolgan dalalar” asarining to‘rtinch bobi shunday boshlanadi:

- Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda!

- O‘ynab qo‘yay! Maqoldanda o‘ynab qo‘yay, shu maqolni aytmiş eldan-da o‘ynab qo‘yay!

- Men dalalarimga temirtish soldim. Dalalarimni qirq satim o‘yib haydadim.[4.45]

Bu yerda maqolning qanchalar to‘g‘ri ekanligini ko‘p yillik kuzatishlar zamirida yuzaga kelganini guvohi bo‘lamiz.

Qish oladan, yoz moladan, deydilar. Bu demak - qishda yer suvlasang ola qoldirma, ko‘klamda yer haydasang bemola qoldirma, demakdir. Boisi - ko‘klamda shudgordan keyin, yer oralari havol - havol bo‘lib qoladi. Anashu havollardan shamol kiradi-kiradi - yer nami qochib qoladi. Yer namini saqlab qolish uchun esa shudgorni boronalash zarur bo‘ladi.

Men shudgorni boronaladim.

Dalalarim kaftday-kaftday bo‘ldi. Moyak qo‘ysa ko‘rinar bo‘ldi. Ammo bir boronani o‘zi kifoya etmaydi. Endi molalash lozim bo‘ladi. Mola yer namini ost qabatidan ust qabatiga ko‘tarib beradi. Mola yer yuza kesaklarni maydalab- maydalab beradi. Men endi dalalarimni molaladim.[4.48] Asarda xalq maqollari g‘oyatda tasirli va tushunarli qo‘llangan, izohlar bilan uning mohiyati ochib berilgan. Har bir maqol Dehqonqul tilidan sodda uslubda tushuntirilgan. Asarda qo‘langan maqollarga e‘tibir bersak. “Yon qo‘shning - jon qo‘shning”, “Aytildan joydan qolma”, “Chilla suv- tilla suv”, “Mehmon otadan ulug‘”, “Yomon qovunning urug‘i ko‘p”, “Intilganga tole yor”, “Betimni qalini - jonimni huzuri”, “Mehnat - mehnatning tagi rohat”, “Qari bilgichni, pari bilmaydi” kabi ko‘plab maqollarni uchratamiz. Ular asar mohiyatiga singib, go‘zal poetik umumlashmalar hosil qilgan. Har bir maqol asarning tasvir doirasidan kelib chiqib asarga mohirlik bilan joylashtirilgan. Bu esa ijodkor fikr mulohazalarini tasdiqlashga yordam bergan. Yozuvchi asarda shunday maqol qo‘llaydi bu o‘rinda maqol o‘z ahamiyatini yo‘qatadi. Ushbu maqolga e‘tibor qilsak “Mehnat- mehnatning tagi rohat” bu maqolda mehnat qilgan inson albatta rohat ko‘rishi takidlanmoqda lekin yozuvchi shunday davrni tasvirlaydiki bu maqol o‘z ta’sir kuchuni yo‘qotadi. Sho‘ro davrida hamma birdek mehnat qildi, kun tun demay ishladilar ammo rohat ko‘rmadilar. Bu maqol o‘sha davrdagi tuzimni, mustabit siyosatni ko‘rsatishda yozuvchiga qo‘l keladi. Insonlar mehnat qilsak albatta rohatini ko‘ramiz deb mehnat qilishadi. Ammo rohat o‘rniga zulm va zo‘ravonlik ko‘rishadi. Buni biz birgina Dehqonqul obrazi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Tog‘ay Murod ijodida folklor ta’siri, asosan

shunda ko‘rinadiki, u xalq maqollaridan ustalik bilan o‘z o‘rnida foydalana olgan. Maqollar ortali qisqa hajmda chuqur ma‘no ifodalashga, asarga ixchamlik bag‘ishlashga erishgan.

Vafo Fayzulloh “Abadiyat” maqolasida shunday qiyoslash keltiradi: “E‘lon qilgan asarlari hajmi...” 918 bet. Lev Tolstoyning bitta “Anna Karenina” romani hajmidan 110 bet kam bo‘lgan butun umrlik ijod... Yoxud Gyotening 133 jildlik asarlarining uch kitobi hajmicha”. Tog‘ay Murod kundaliklarida “Otamdan qolgan dalalar” olti yuz (600) betdan oshiq edi. Men uni uch yuz (300) betga qisqartirib tushirdim. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” besh yuz (500) betlar edi, men uni ikki yuz ellik (250) betga tushirdim. O‘z qo‘lim bilan qaychiladim. Yillar davomida yaratgan, peshona teri to‘kib yaratgan mehnatim samarasini o‘z qo‘lim bilan yo‘q qildim.

Ko‘nglim... uvishib ketdi. Ko‘nglim... achishib ketdi. Ko‘kragim ostida bir nima o‘pirilib tushganday bo‘ldi... deb yozadi. Ehtimol, ijodkor bunday asarlardan qanchasini yozgandir, qanchasini qisqartirgandir. Balki yozuvchi o‘z asarlarini qisqartirganda maqollardan yanada ko‘proq foydalangandir. Chunki maqollar rad etib bo‘lmaydigan hukum tarzida bo‘ladi. Yozuvchi o‘z so‘zini maqollar bilan isbotlagan, ko‘p o‘rinlarda obrazlar xarakter hususiyatlarini ochishda ham maqollarga murojat etgan. Har xil o‘xshatish va tasvirlardan uzoqlashgan bu orqali qisqa so‘zlar orqali asarini yanada xalq tiliga yaqinlashtirgan. Masalan “Yulduzlar mangu yonadi” asarida Nasimdagi o‘zgalarni ko‘ra olmaslik, hammaga yamonlik istashini bu feli hech qachon o‘zgarmasligini xalq og‘zaki ijodidagi “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” maqolini qo‘llaydi. Bu bir maqol bilan uning xarakterini, u hech qachon o‘zgarmasligini kitobxonga oldindan ishora qilib o‘tadi. Bunday o‘rinlarni biz ijodkor asarlarida juda ko‘p uchramiz. Yozuvchi asar mavzusiga moslab maqollar tanlagan va asar davomida ulardan o‘rinli foydalangan. Masalan “Yulduzlar mangu yonadi” asarida kurash haqida, “Ot kishnagan oqshom” asarida ot bilan bo‘g‘liq maqollar keltiradi. Bundan tashqari kal obrazi bilan bog‘liq bir qancha maqol va iboralarning guvohi bo‘lamiz. Bular quyidagilar:

Ot haqida maqollar	Kal obrazi haqida maqollar
“Otga minsang boshingni o‘yla, yerga tushsang - otingni o‘yla!”	“Kal o‘zini ovutar - qo‘ltig‘ini sovutar”
“Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi”	“Kalning nimasi bor, temirdan tarog‘i bor”
“Eshshak yiqilsa tuyog‘ini to‘shaydi, ot yiqilsa, yolini to‘shaydi”	“Kal boshga shamol yaxshi tegadi”
“Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa-da, dong‘i chiqmaydi”	“Bir kalning hiylasi - qirq kishini charchatadi.”
“Ot olsang, ho‘kiz qorindan ol,	“Indamagin kalga-o‘zi kelar holga”

ho‘kiz olsang, ot qorindan ol”	
“Ot tepkisini, ot ko‘taradi.”	

“Ot kishnagan oqshom” asarida ijodkor tomonidan qo‘llangan quyidagi maqollarga e’tibor bersak. E, tavba-e, e, tavba-e! Chavandoz devordan ag‘anasa, albatta bir yeri lat yeydi. Maydagina eshakdan yiqilsa, xiyol vaqt qimirlamay yotadi. O‘qday uchib borayotgan otdan yiqilsa, hech nima ko‘rmaganday, sapchib turib ketdi! Birodarlar, eshak yiqitsa, tuyog‘ini to‘shaydi, ot yiqitsa, yolini to‘shaydi.[2.120] Ko‘rib turganimizdek yozuvchi maqollar mohiyatini o‘ziga xos o‘xshatishlar orqali tasvirlagan, o‘z fikrini maqollar bilan aniq dalillagan. Bu orqali asarga o‘zgacha bir ruhiyat baxsh etgan. Asarda bu kabi maqollarning qo‘llanishi yozuvchi maqsadini ro‘yobga chiqaruvchi badiiy vosita bo‘lib hizmat qilgan.

Tog‘ay Murodning har bir asari folklor an‘analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug‘orilgan. Ijodkor o‘z asarlari orqali o‘zbek adabiyotiga milliylik ruhini qaytardi.

Tog‘ay Murod milliyligimiz, azaliy urf-odat, an‘analarimizni o‘z asarlarida qayta jonlantirdi. Har bir asarida folklor namunalaridan foydalanib go‘zal va betaktor asarlar yaratdi. Ushbu asarlarda folklorizm namunalari yozuvchi maqsadini ro‘yobga chiqaruvchi badiiy vosita bo‘lib hizmat qilgan. Vatan, insonparvarlik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik tuyg‘ularini tarannum etadigan so‘zlar folklor namunalari bilan sintezlashib yagona zamonaviy asarlarning yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Yozuvchi xalqimizning barhayot an‘analarini, xalq o‘g‘zaki ijodini chuqur o‘rganib, o‘zbek adabiyotini boyitdi, hozirgi zamon nasrimizni yuksaklikka ko‘tarishda zo‘r kuch sarf etdi.

Asarlarda maqollarni qo‘llashdan asosiy maqsad didaktika bo‘lib, maqollar juda katta ta’limiy tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda maqollarning roli juda muhim.

Shuning uchun asarda ortiqcha so‘z, ortiqcha tasviriylik va tavsifiylik uchramaydi. Chunki maqollardagi ixchamlikning o‘zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Shu boisdan maqol o‘z tabiatiga ko‘ra eng keng qo‘llanuvchi xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o‘z maqollariga ega bo‘lmagan xalqni uchratish qiyin. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini, ko‘p yillik kuzatishlarni maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Bizning taxminimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqeaning ahamiyati kattadir. Ana Shunday hayot lavhasiga guvoh bo‘lgan dono odamlar ko‘rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnamo gaplarni o‘ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo‘lishi kerak. Bunday asosga ega bo‘lmagan maqolning umri qisqadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki maqol bir qator xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq boshqa janrlar voqealikni epik usulda, obrazlarning xatti-harakati, kechinmalari orqali aks ettirsa, maqollar voqealikni xalqning bevosita ana shu voqeylik haqida xulosalari, hukmlari orqali aks ettiradi. Bu xulosalar tarbiyaviy ahamiyati, ibratliligi bilan asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Mirzayev. “O‘zbek xalq maqollari”- Toshkent “Sharq”, 2016.
2. Tog‘ay Murod. “Ot kishnagan oqshom”.-T.: “Sharq”, 2009
3. Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”.-T.: “Sharq”, 2009
4. T.Murod “Otamdan qolgan dalalar”. –T.: 1994.
5. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar .-T.: Sharq, 2009 . 1-jild
6. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005
7. <https://fayllar.org>
8. www.o‘zbekadabiyoti.com